



MULOQOTDA BIR-BIRIMIZNI ANGLAYMIZMI

Izaitullaeva Lazokat Eshimbaevna

*"Pedagogika va psixologiya" kafedrasi o'qituvchisi
Angren universiteti, O'zbekiston.*

Annotatsiya: Maqolada o'qituvchining pedagogik mahorati pedagogik faoliyat, pedagogik muloqot va shaxsiy xususiyatlarning birligi asosida innovatsion ta'lim texnologiyalarining dars jarayoniga tadbiiq etish orqali o'qituvchining pedagogik maxoratini yanada takomillashtirish yo'llari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Mahorat, kasbiy mahorat, pedagogik mahorat, pedagogik faoliyat, pedagogik muloqot, pedagogik texnika, pedagogik jarayon, pedagogik tizim, ijodkor o'qituvchi, mahoratli o'qituvchi.

Ta'limiy uchlik – «maksad – jarayon - natija» ning o'rta bo'g'inida hozirda e'tibor kuchaygan bo'lsada, bir kator pedagog olimlar ushbu zanjirning boshi va oxiridagi xalkalarni chukur o'rganmokdalar.

Mazkur uchlikni ta'lim tizimida muvoffakiyatli joriy etishi uchun belgilangan maksadni aniklash, jarayonni nazorat kilish va kuzlangan natijaga erishish uchun ta'lim amaliyotida qo'llash, shuningdek, pedagoglarni innovatsion ta'lim texnologiyalarning nazariy asoslari bilan kurollantirish va pedagoglarning kasb mahoratini yanada takomillashtirish shu kunning dolzarb muammosidir.

"Pedagogik mahorat o'qituvchining individual hususiyatlarining mahsuli" deb nomlanuvchi ushbu ilmiy maqolaning maqsadi o'qituvchining individual mahsuli bo'lgan pedagogik mahoratning uch atamasi ya'ni pedagogik faoliyat, pedagogik muloqot va shaxs xarakterining dars jarayonidagi rolini ochib berishdan iborat.

Bizga ma'lumki, mahoratli o'qituvchi deganda, o'quvchilarga dars berish jarayonida uning so'zamolligi, ijodkorligi, tashabbuskorligi, tadbirkorligi, o'quv mashg'uloti jarayonida mavzuga o'quvchi diqqatini torta oladigan, mavzu mazmuniga mos didaktik materiallar va ko'gazmalar quollar tayyorlab, undan o'rinli va unumli foydalana oladigan, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni dars jarayonida qo'llash va axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan ustalik bilan foydalanuvchi, shuningdek, bola qalbiga yo'l topishda hushyorligi kabi qator ijobiy hislatlari bo'lgan, har bir dars mavzusiga bolaning qiziqтира oluvchi muallimni tushinamiz.

Mahorat (Arab tilida "mohirlik", "ustalik", "epchillik" ma'nosini anglatadi)

- 1) biror ish, kasb uchun zarur yoki shu sohada orttirilgan ustalik, san'at, mohirlik;
- 2) bir ish yoki faoliyatni yuksak darajada, hech bir qiyinchiliksiz, o'ta mohirlik bilan bajarish;
- 3) muayyan xatti - harakat yoki kasbiy faoliyatni ustalik, mohirlik bilan, san'atkorona tashkil etilishiga imkon beradigan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisidir.



Pedagogik mahorat o'qituvchining shaxsiy-kasbiy faoliyati natijasining jamlanmasi bo'lib, muayyan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisidan iborat ekan.

Pedagogik mahorat atamasi quyidagicha ma'nolarni anglatadi:

- kasbiy ko'nikmalarning yuksak darajada rivojlanishini;
- shaxsning shaxsiy sifatlari va layoqat qobiliyatlari majmuyini;
- san'at darajasidagi mahoratni;
- pedagogik mohirlik, san'at va bilimdonlikni ifodalaydi.

O'qituvchidagi pedagogik mahorati uning ilmiy-pedagogik faoliyati jarayonidagi betinim izlanishlari va individual va jamoaviy ijodiy mehnatlarning mevasidir.

Pedagogik mahorat tushunchasiga ta'rifni "Pedagogik ensiklopediya"da quyidagicha "Tarbiya va o'qitish yuqori darajaga erishish va uni doimo takomillashtirib borish imkoniyatini ta'minlovchi san'at bo'lib, bolaga mehr qo'ygan va o'z kasbini sevadigan har bir o'qituvchining qo'lidan keladigan ish" – deb izohlanadi.

O'qituvchining pedagogik mahorati uning pedegogik foliyatida o'z aksini topadi. Mahoratli o'qituvchi o'z faoliyati jarayonida o'z fikrini sodda, ravon va tushunarli bayon eta olish salohiyatiga ega bo'lishi zarur. Dars jarayonini tashkil etishda, mavzuni bayon etishda fanning eng yangi ma'lumotlari ham mavzu uchun tayyorlangan dars ishlanma(konspekt)da o'z aksini topgan bo'lishi kerak.

Bir so'z bilan aytganda, mahoratli o'qituvchi tayyorlagan dars ishlanmasi besh bahoga loyiq qilib tayyorlanishi kerak. Buning uchun o'qituvchi mavzuga aloqador bo'lgan so'ngi yillardagi fan yangiliklarini darslik, o'quv qo'llanmalar, uslubiy tavsiyanoma va ko'rsatmalar, ommaviy ahborot vositalari va internet materiallaridan olib boyitadi va ushbu tayyorlangan dars ishlanma yordamida o'quv mashg'ulotini tashkil qiladi.

Dars jarayonini tashkil qilishda o'qituvchi sinf honasini o'quv mashg'ulotiga tayyorligini nazorat qilishi, mavzuga tegishli didaktik material va ko'rgazmali qurollar, ahborot kommunikatsiya texnologiya vositalaridan foydalanishga tayyorlab qo'yilishi va dars jarayonini innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanib bayon etishiga tayyor bo'lishi lozim.

O'quvchilar tafakkurini rivojlantirishda, pedagogik mahoratini takomillashtirishda ma'ruza darslari alohida ahamiyat kasb etadi.

Ma'ruzani boshlashdan oldin, bu materialni o'rganishdan ko'zlangan aniq maqsadni ta'kidlash muhim. So'ngra bilimlarni egallash, g'oyani isbotlash, oqilona harakat usullarini tanlash prinsiplarini ko'rsatish zarur. Shundan so'nggina, mavzuni mohiyatini ochib beriladi. O'z ishiga ijodiy yondoshadigan o'qituvchilar ma'ruza davomida dialog, savol-javob, qaytarish, muammoli vaziyatlar, o'xshatishlar va shu kabilardan unumli foydalanadilar.

O'quvchilarga yangi bilimlarni bayon etishda va qonuniyatlarni kashf etish bilan bog'liq bo'lgan mavzularni bayon etishda, aqliy faoliyatni rivojlantirishda seminar darslar muhim ahamiyat kasb etadi. Seminar darsi jarayonida eng qoloq o'quvchi ham boshqa turdagi darsda uddalay olmaydigan darajadagi aqliy ish bajarishi mumkin



Mohir o'qituvchi dars o'tish metodikasini doimo takomillashtirib boradi u muammoni qo'yar ekan, o'quvchida muammoni yechimni topishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ziddiyatlarni ovoz chiqarib mulohaza yuritib o'z fikrlarini bayon qiladi va ularni muhokamaga qo'yadi. Sodir bo'lishi mumkin bo'lgan e'tirozlarni oldindan bartaraf qiladi, haqiqatni tajribada (namoyish qilish yoki olimlar o'tkazgan tajribalar asosida) isbotlaydi

O'qituvchi o'quvchilar oldida ilmiy tafakkur yuritish yo'llarini namoyish qiladi. Bu esa o'quvchilarni ilmiy izlanish yordamida haqiqat tomon yo'llaydi, ularni bunda ishtirokchi bo'lishlarini ta'minlaydi.

Mahoratli ijodkor o'qituvchilarning fikricha, muammoli o'qitish o'quvchilarning darsdagi faolligini, ularni erkin fikrlashlarini rivojlantiradi. O'quv materialini bloklar bo'yicha berish, umumiylikdan xususiylikka, qonunlardan hodisalar tomon yo'nalishga asoslangan prinsiplardan oqilona foydalanadilar.

Mohir o'qituvchi darsi jarayonida o'quvchilarda qiziqish, sinchkovlik, bilimga oid ehtiyojlari namoyon bo'ladi, o'quvchilar savol beradilar va o'zlari javob izlaydilar, tafakkurlarini ishga solib, savollar yechimini topishdagi qiyinchiliklarni yengishga o'rganadilar.

O'quvchilarni faolligi va izlanuvchanligini oshirishda, muammoli o'qitishni qo'llashda mohir o'qituvchilar o'quvchilarga beriladigan savollar va topshiriqlar tizimini o'ylab topadilar. Ular tuzgan savollar qisqa, lo'nda va aniq bo'lishi kerak. Shu tartibda o'quvchilarni qiziquvchanligi va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantiribgina qolmasdan, balki, ularni ijodiy qobiliyatlarini ham rivojlantiradilar

O'qituvchi o'quvchilarga o'zining hatti - harakati, o'qituvchilar jamoasidagi o'rni, turmush tarzi, tashqi qiyofasi va imidji bilan na'muna ko'rsatishi, madaniyati, hakgo'yiligi va ma'naviy sifatlari bilan ta'lim muassasasi jamoasi oldida o'rnak bo'lishi lozim. Shuning uchun ham o'qituvchi qaysi fandan dars berishidan qat'iy nazar, o'quvchilar ko'z oldida ma'naviyatli, kompetentli murabbiy siymosida shakllanishi va taqlid uchun yuksak na'muna bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik mahorat quyidagi faoliyat yo'nalishlari:

1)O'quv pedagogik faoliyat yo'nalishi.Bu yo'nalishda o'qituvchi fanlarni ilmiytexnikaviy taraqqiyot va davr talablari darajasida bilishi zarurligini nazarda tutadi.

2)Shahsiy faoliyat yo'nalishi.

3)Ijtimoiy pedagogik faoliyat yo'nalishi.

4)Axborot-kommunikativ faoliyat yo'nalishidan iborat.

Pedagogik mahorat o'qituvchining pedagogik faoliyati, pedagogik muloqati va pedagogning individual hususiyatlari birligidan iborat ekanligini e'tiborga olsak o'qituvchining pedagogik faoliyati quyidagicha izohlanadi.

Pedagogik faoliyat - bu o'qituvchining o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berish jarayonida pedagogik ta'sir o'tkazish vositalari bilan amalga oshiriladigan kasbiy faolligidir.



Mahoratli o'qituvchi pedagogik faoliyati bevosita yoki bilvosita o'qitish va tarbiyalash vazifalarini bajarishga qaratilgan bo'lib, o'quvchini o'qitadi, tarbiyalaydi, yo'l-yo'riqlar ko'rsatadi, mustaqil bilim olishini muntazam nazorat qilib boradi.

O'qituvchi o'zining pedagogik faoliyatida o'quvchiga nisbatan insonparvarlik munosabatlariga qat'iy rioya etishi, mutaxassislik fanlari o'qitish metodikasi, pedagogika va psixologiyadan kasbiy bilimlarga ega bo'lishi, pedagogik qobiliyatga ega bo'lishi, pedagogik texnikani egallashi, insonparvar bo'lish maxoratli pedagog faoliyatining bircha jihatlarini kamrab oladi va uning anik vazifalarini xam belgilab beradi.

Shuni ta'kidlash lozimki, pedagogik mahorat uchun faqatgina shakllangan pedagogik faoliyat yetarli emas, bunda o'qituvchi kasbiy faolligi o'quvchilar bilan pedagogik muloqotga kirisha olish muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik muloqot - bu o'qituvchi kasbiy faoligining bir ko'rinishi bo'lib, bunda ta'lim va tarbiya vazifalarini o'qituvchi va o'quvchi hamkorligi jarayonida o'zaro munosabatlari vositasi bo'lib hizmat qiladi.

O'qituvchining o'quvchi bilan o'zaro munosabati pedagogik muloqotning asosiy tarkibiy qismi bo'lib, o'qituvchining o'quvchilar va kasbdoshlari bilan o'zaro munasabat vositalari hamda usullari asosiga quriladi.

Pedagogik muloqot demokratik, avtoritar va liberal shaklda o'z aksini topadi. Pedagogik muloqotda qanday o'ziga xos qiyinchiliklar mavjud?

Pedagogik muloqotning qiyinchiliklarni bartaraf etishi uchun, o'qituvchi pedagogik muloqot usullarni takomillashtirib borishi, muloqotning barcha vazifalarini aniqlab olishi, muloqot vositalarini muntazam boyitib borishiga asoslangan dasturini tuzib olishi muhim rol o'ynaydi.

Buning uchun mahoratli o'qituvchi boshqa kishining sub'ektiv qarashlarini aniqlab olishi va bu odam bilan muloqotda oqilona hal qilinishi zarur bo'lgan vazifalarni aniqlashning eng maqbul vositalari majmuasini belgilashi, muloqotda boshqa kishining javobini oldindan bilishi mumkin bo'lgan muloqotlarning bir nechta variantiga ega bo'lish, shuningdek, boshqa odamlarni tinglay olishi, ularga hamfikir va hamdard bo'lishi hamda muloqot natijalarini baholashi va ularni foydalanilgan vositalari bilan taqqoslay olishni bilishi kerak.

Pedagogik faoliyat va pedagogik muloqot xarakteri o'qituvchi shaxsi, uning qarashlarida, nuqtai nazarlarida, hulqida namoyon bo'ladigan g'oyaviy - siyosiy saviyasi, kasbiy tayyorgarligi va bilishga intilishi bilan uzviy bog'liq. Bu asosiy xislatlardan tashqari o'qituvchining umumiy va boshqaruv qobiliyati, uning moyilligi, xarakteri, muvaqqat psixologik holatlari, shuningdek, to'plangan tajribasi muhim ahamiyatga ega.

Yuqorida bildirilgan fikrlardan quyidagicha hulosa qilish mumkin.

Pedagogik maxoratning ta'lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati o'qituvchining pedagogik faoliyati, muloqoti va shaxsiy xususiyatlari birligi innovatsion ta'lim texnologiyalarining asosi ekanligi, o'qituvchning pedagogik mahorat bilan dars tashkil



etish faoliyati innovatsion ta'lim texnologiyalarining natijasi ekanligi va innovatsion ta'lim texnologiyaarini pedagoglarning kasb maxoratini takomillashtirishda asosiy omil ekanligi aniqlandi. Aniqlangan ilmiy-metodik tajribalar (eksperiment) ning natijalari ta'lim-tarbiya jarayonini samaradorligini ortishiga va o'quvchilar bilimni yanada yuqori darajaga ko'tarishda o'quvchilar bilimni ortishiga asosiy omil sifatida xizmat qiladi. Kelajakda ushbu tadqiqot natijalari ta'lim tizimining metodik kengashlarda o'rganilsa, olingan natijalar tahlil qilinsa, hulosalar umumlashtir

Hammamiz aziz farzandlarimiz hayoti va taqdirini o'qituvchi va murabbiylarga ishonib topshiramiz. Mana shunday beqiyos boylik posbonlari, kelajak bunyodkorlari bo'lgan bu mo'tabar zotlarga munosib hurmat-extirom ko'rsatishimiz kerak.

Albatta o'qituvchining asosiy vazifasi shaxs erkinligini, mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishda xizmat qilishi kerak. Shundagina ta'lim tizimida yoshlar orasida erkin fikrlash imkoniyatlari paydo buladi. Davlat siyosatining ustuvor sohasi bo'lmish komil inson tarbiyasiga mas'ul - o'qituvchi zimmasiga bugungi kunda rivojlanayotgan jamiyatimiz uchun ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, irodasi baquvvat, o'z kasbini mukammal biladigan XXI asr kadrlarini tayyorlash mas'uliyati yuklangan. Bu mas'uliyat o'qituvchi va murabbiylarning bardavom mehnatlari, har bir soha uchun kiritadigan ilmiy yangiliklari orqali bartaraf bo'ladi.

O'qituvchi talabalar bilan muloqot jarayonida muloyim, aql va ilm bilan ish yuritishi zarurdir. Chunki muloyimlik kishini o'ziga tortadi va oladigan ma'lumotlarini yengillashishiga ko'mak beradi. Har bir kishi boshqa bir kishiga, oila yo jamiyatga yaxshilikni iroda qilsa, demak unda muloyimlik xislati mavjuddir. Shu bois o'ziga yaxshilik yetishini umid qilgan inson va jamiyat muloyimlikka intilishi lozim. Muloyimlik- zaiflik emas, aksincha, kuch va quvvatdir. Ko'ringki, suv muloyimlik bilan toshni ham, temirni ham teshib o'tadi va barchaga hayot baxsh etadi. Ammo tosh qattiq bo'lgani bilan qarshiliklarga uchrab parchalanib yotadi va hammayoqda unga salbiy nazar bilan qaraladi.

Muloyimlik – axloqli odamning qimmatbaho libosi va u kiyim turlarining eng chidamli matosidir.

O'qituvchi talabalar bilan muloqoti samarali bo'lishini istasa, tinglovchilarni o'ziga moyil qilib olishga o'zidagi bor mahorati bilan intilishi kerak. O'zaro moyillikka erishish uchun amalda samara bergan, qo'llanilib kelingan bir qator murakkab bo'lmagan pedagogik ta'sir etuvchi usullardan foydalaniladi. Ularning eng muhimlari talaba ishonchini qozonish hamda ta'sir etish va ma'qullash usullaridir. Bu usullar talaba ongiga ta'sir etib, idrok qilish orqali talabalar ishonchini qozonish va ularning moyilligini keltirib chiqaradi. Ishonchini qozonish dalillash, isbotlash orqali olib boriladi. Ishonchini qozonish usuli muloqot dasturi sifatida darsdan tashqari jarayonlarda, talaba bilan yakka holda suhbatlarda, ma'naviytarbiyaviy soatlarda qo'llaniladi. Ishonchini qozonish usuli yordamida o'qituvchi talabalarning



dunyoqarashini shakllantiradi, ularda o'z-o'zini tarbiyalashga nisbatan javobgarlik hissini oshiradi.

Talaba ishonchini qozonishning muhim xususiyati talabalarni shaxs sifatida rivojlanishida o'z-o'zini tarbiyalashidir. Har qanday o'ziga ishongan talaba qiyinchilik tugilgan vaqtlarda osongina ishni xal qilish imkonini o'zida topa oladi. O'z-o'zini tarbiyalash talabaning o'zini o'zi boshqara olishi, o'z faoliyati ustida erkin harakat qilishi, ijtimoiy mavqeini, tashabbuskorlik va mustaqilligini shakllantiradi. Talabada yashirin bo'lgan, o'zi sezmagani ba'zi bir qobiliyatlari o'z-o'ziga ishonch orqali yuzaga chiqadi. Muloqot jarayonida o'qituvchi talabani qadrli ekanligini his qilishi, har bir bola, o'smir va o'spirinning betakror va o'ziga xos xususiyatlarini hurmat qilishi, uning ijtimoiy xulqi va erkinligini e'zozlashi lozim. Zero, ta'limni isloh qilishdan asosiy maqsad, tarbiyada demokratiyaning ustunligi, tarbiyani ma'muriy ehtiyoj va qiziqishlardan yuqori qo'yish, tarbiyachi va tarbiyalanuvchining bir-birlariga o'zaro ishonchi, hamkorlik asosida pedagogik munosabat mohiyatini ijobiy tomonga yo'naltirish demakdir⁴. Muloqotni erkin uslubda tashkil etish, ta'lim-tarbiyani chiroyli shaklda tashkil etish, pedagogik faoliyat markazida inson shaxsi turganini unutmashlik, insonga nisbatan bebaho bo'yluk sifatida munosabat tuyg'ularini talabalarda ham shakllantirish har bir o'qituvchining burchidir.

Shuningdek, talaba shaxsini hurmat qilish, ularga cheksiz mehr-muhabbat ko'rsatish va ishonish shart. O'qituvchining talabalar bilan qilayotgan muloqoti jarayonida ularga hurmat ko'rsatishi - ularning kuchiga kuch qo'shadi va imkoniyatlariga ishonch tuyg'usini shakllantirib tarbiyaning samaradorligini oshiradi. Talaba shaxsini hurmat qilish va munosabatni adolatli talabchanlik mezonlari asosida qurishdir. Do'stona muloqot o'qituvchi bilan talaba o'rtasidagi bilimlarni puxta qabul qilishlarini ta'minlaydi va mukammal shaxsiy fazilatlarni tarkib toptirishga xizmat qiladi. Pedagogik jarayonda amalga oshiriladigan muomala odobi o'qituvchining axloqiy madaniyati, uning qay darajada tarbiya topganligi va uning qay darajada bilimga ega ekanligini yaqqol ma'lum qiladi. O'qituvchining o'ziga va o'z kasbiga, talabalarga bo'lgan munosabati uning muloqotida namoyon bo'lmasdan chorasizdir.

Xalkimizda buyuk hikmat bor "Tarbiyachi tarbiyalashdan oldin o'zi tarbiyalangan bo'lishi kerak", bu hikmatda juda katta ma'no va tajriba bor. Tarbiyasi go'zal, odobi chiroyli, bilimi yetuk insonlarga buyuk shaxslarni chikishiga sabab bo'la oladilar. Shuning xar bir o'qituvchining ma'naviy yetuklikka intilishi maqsadga muvofikdir.

O'z faoliyatiga yangi qadam quygan o'qituvchi, ayniqsa, unga individual yondashishga harakat qilishi, har bir talabaning kelajagiga umid bilan qarashi va talabaga umid bagishlashi, bilim olish jarayonida talabaning o'zlashtirishi sust bo'lsa xolatiga qarab tanbeh berishi, talabalar jamoasi oldiga istiqbolli tarbiyaviy maqsadlarni qo'yishga intilishi lozim. O'qituvchi o'z fanidan bilimi sayoz bo'lsa, o'z ustida muntazam ishlamas, ma'lum bir pedagogik mahorat sirlarini egallashga intilmasa, shaxslararo munosabatlarga ijodiy yondashmasa, talabalar uni asta-sekin



tan olmay qo'yishadi. Natijada o'qituvchi va talaba muloqotida tuzatib bo'lmas xatoliklar paydo bo'lishi mumkin.

"Ilm olish-igna bilan quduq qazish bilan barobar" deganlaridek muntazam mehnat bilan talabalar oldiga qo'yg'an o'z maqsadlariga yeta oladilar. Ta'lim muassasalarida talaba mehnat faoliyati bilan o'z qobiliyati va iste'dodini namoyon qiladi. Bunda tajribali o'qituvchilarning o'rni bekiyosdir. Mehnat - yosh avlodni yuksak ongli, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvorini namoyon qiluvchi, kasbiy qobiliyatlarini uyg'otuvchi eng qadimiy va sinalgan vositasidir. O'kuv mehnati va ijtimoiy foydali mehnat talaba shaxsiga ijobiy ta'sir etadi, bu ikki faoliyat birligi bolani jismonan chiniqgiradi va faollashtiradi, xulq mukammalligini ta'minlaydi, tashabbuskor va izlanuvchan qilib shakllantiradi. Ta'lim muassasalarida bolalarni ilk yoshidan boshlab mehnatsevarlik ruhida, mehnatga muhabbat va mehnat qiluvchilarga hurmat ruhida tarbiyalashda o'zaro muloqotning o'rni cheksiz.

Muloqotdan maqsad, ta'lim-tarbiyaviy faoliyatda muvaffaqiyatlarga erishish, Yangi O'zbekistonimiz uchun nafi tegadigan kelajak avlodni qoldirish, tarixini chuqur urganib, hurmat qiladigan va tarixiy voqealar bilan fikr yuritadigan, o'z kelajagiga chiroyli yondashadigan, odob-axloqi va bilimi mukammal bo'lgan avlodni qoldirishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nusratilloevna, M. S. (2023). Ma'naviy makonning falsafiy muammolari. So'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi, 6(7), 128-130.
2. Mirahmedova, Shohida (2023). Ma'naviy makonning falsafiy muammolari. SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 6(7), 135-137.
3. Худайкулова, Г. К., Илясова, М. М., Садирходжаева, Н. С., & Исраилов, Ж. Д. (2023). ВНЕДРЕНИЕ НОВОГО ПОДХОДА К ОЦЕНКЕ КАЧЕСТВА СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.
4. Худайкулова, Г. К., & Каримбаев, Ш. Д. (2023). РЕФОРМЫ ВЫСШЕГО МЕДИЦИНСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ.
5. Садиков, Х. М. А., Туйчиев, Л. Н., & Худайкулова, Г. К. (2023). Dependence of adherence to antiretroviral therapy on various factors (Doctoral dissertation, Беларусь, Гомель).
6. Муминова, М. Т., Рахматуллаева, Ш. Б., & Худайкулова, Г. К. (2023). Постдипломное образование: судьба резидентов магистратуры после прохождения специализации.
7. Suyunov, B. T. (2023). Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim - inson farovonligining omili sifatida. Inson farovonligini o'rganishda fanlararo yondashuv, 1(1), 20-23.
8. Суюнов, Б. Т. (2022). Тиллараро ташқи тиббий лакунар бирликлар. ЎзМУ хабарлари, 1(3), 274-276.



9. Kushakova, M. N., & Salimov, I. (2023). Requirements to the specialist of the Digital Economy. Conferencea, 22-28.
10. Кушакова, М. Н. (2023). Этапы распространения высоких цифровых технологий в предприятиях. Экономика и социум, (5-1 (108)), 595-598.
11. Kushakova, M. N. (2023). New priorities for the development of the digital economy in Uzbekistan. In E3S Web of Conferences (Vol. 402, p. 08039). EDP Sciences.
12. Kushakova, M. N. (2022). Management methods for rail transport service personnel. Экономика и социум, (10-1 (101)), 881-883.
13. Абдурашитова, Е. В. (2023). Семья-Основной Фактор Воспитания Конкурентно-Способной Личности. Diversity Research: Journal of Analysis and Trends, 1(3), 66-70.
14. Vladimirovna, A. E. (2023). Tasks, The Implementation of Which Will Ensure the Food Security of the Republic of Uzbekistan. Texas Journal of Agriculture and Biological Sciences, 16, 73-76.
15. Kadyrova, O. K. (2020). Professional pedagogical activity its types and structure. Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук, 1(12), 93-96.
16. Kadirova, O. K. (2022). Use of the Neurolinguistic Programming Method to Achieve the Goals of the Educational Process. International Scientific Journal Theoretical & Applied Science, 10(12), 188-192.
17. Kadirova, O. K. (2022). Boshlang'ich ta'lim rivojlantirish muammolari va istiqbollari. Zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish, 403(1), 18-19.
18. Kadyrova, O. K. (2021). Foundations of artistic synthesis in the literatures of the west and the east at the present stage. Innovative engineering and management research, 10(01), 227-232.
19. Abdullajonovna, U. A., Xashimovna, K. D., & Bakhtiyarovna, A. B. (2020). Estimated attitude of students to cultural and leisure activities at the university. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(3), 268-281.
20. Kosimova, D. X. (2022). The role of choreography in the comprehensive development of children with disabilities. Oriental Art and Culture, 3(2), 302-306.
21. Kosimova, D. K. (2022). The role of psychology in the art of choreography and its impact on performance skills. Oriental Art and Culture, 3(3), 61-63.
22. Yunusalievna, E. M., & Maxmudovna, K. M. (2023). Theoretical Foundations of Using the Possibilities of Mobile Learning in the Educational Process. Journal of Survey in Fisheries Sciences, 10(2S), 3443-3453.
23. Eshnazarova, M. (2019). Some requirements and principles of mobile learning. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 1(2), 266-270.
24. Quvondiqov, S. S. (2022). Dynamic situation as a meta way of perception and understanding of competitive activity in martial arts.



25. Sidikovich, K. S. (2023). Integrative-Pedagogical Features of The Development of A Sense of Patriotism in Future Educators. *European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices*, 1(2), 259-264.

26. Karimovna, Q. X. (2023). Boshlang'ich sinflarda imloviy savodxonlikni oshirishda chiroyli yozuv malakalarini shakllantirishning ahamiyati. *O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali*, 2(23), 100-105.

27. Karshiboyeva, K. (2023). Use Of Integrated Educational Technologies In Higher Education. *Diversity Research: Journal of Analysis and Trends*, 1(3), 254-261.